



**SO‘FI ALLOHYORNING “SABOT UL-OJIZIN” ASARI SHARHI VA UNING
KISHILAR MA’NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA TUTGAN O’RNI**

Abdullayev Jahongir Shuhrat o‘g‘li

Annotatsiya: Ushbu tezisda buyuk tasavvuf shoiri So‘fi Allohyor qalamiga mansub bo‘lgan eng mashhur asarlardan biri – “Sabot ul-ojiziyn”da keltirib o‘tilgan ba’zi mashhur hikmatlarga alohida to‘xtalib o‘tilgan. O‘z navbatida, bu hikmatlar kishilarga kuchli ruhiy-ma’naviy oziq berishi, shaxsning kamolotga erishuviga xizmat qilishi ta’kidlangan.

Kalit so‘zlar: So‘fi Allohyor, tassavvuf, “Sabot ul-ojiziyn”, aqida, iymon, pir, kamolot.

Abstract: In this thesis, one of the most famous works written by the great Sufi poet Sufi Allahyar - "Sabot ul-Ojiziyn" - is focused on some famous wisdom. On the other hand, it is emphasized that these wisdoms provide people with strong spiritual and spiritual nourishment and serve for the perfection of a person.

Key words: Sufi Allahyar, mysticism, "Sabot ul-Ojiziyn", belief, faith, pir, perfection.

So‘fi Allohyorning “Sabot ul-ojiziyn” asarida aqida masalasining yoritilishi. Ushbu asar olimning eng mashhur asarlaridan biri bo‘lib, o‘z davrida Qur’oni Karim va sunnati nabaviyadan keyin maktab va madrasalarda asosiy o‘quv qo‘lanmalaridan biri sifatida o‘qitilgan. Bunga sabab, asarning sodda va tushunarli, xalqchil nazmiy uslubda bitilganligi va unda har bir muslimon kishi bilishi zarur bo‘lgan aqidaviy masalalarning yoritilganligidir.⁵ Asar 3000 misradan ortiq bo‘lib, ko‘plab xorijiy tillarga tarjima qilingan.⁶

Shu bois, shoir asar yozishdan ko‘zlangan maqsadini ushbu kitobning “Sababi nazmi” kitobi “Sabot ul-ojizin” bobida quyidagicha sharhlaydi:

Yozildi forsiy til birla maktub,
Aqiydotu furu (fiqhiy masalalar) qurbi (yaqin) Mahbub.

Anikim ko‘rdilar turkiy yoronlar,
Dedilar: “Gar duo qilsa eranlar (avliyolar).

Bitilsa turkiy til birla aqiyda,
Ko‘ngullar bo‘lsa andin oramiyda.⁷

Bizga ma'lumki, muallif dastlab fors tilida aqida, shar’iy hukmlar, Allohga yaqin bo‘lish yo‘l-yo‘riqlari bayon etilgan “Maslak ul-muttaqin” nomli asar yozgan. Buni ko‘rgan turkiyzabon kishilar undan turkiy tilda ham aqidaga oid asar yozishni so‘rab murojaat qiladilar. Alloma esa, bunga javoban “Sabot ul-ojizin” asarini turkiyda yozadilar.

⁵ Хидоят ут-толибийн”—“Сабот ул-ожизийн шархи”/ Сайид Ҳабибуллоҳ ибн Сайид Яхёон: шархлаб нашрга тайёрловчи: О. Алимов –Тошкент. Тошкент ислом университети. 2009. 5-6.

⁶ Равшан Мирзаев. Сўфи Оллоёрга замон боқажак. –Тошкент. Фан. 2007. 28-б.

⁷ “Саботул ожизин” шархи/ С. Алоҳёр: шархлаб нашрга тайёрловчилар.:М. Исмоилов ва А. Акбаров. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. 6-б.



Ushbu asar Allohga va uning rasuli Muhammad (s.a.v)ga hamd bilan boshlanib, so‘ngra, aqiydaning asosi bo‘lgan imon shartlari ketma-ketligi asosida davom etgan:

Sano (dunyo) lil-Xoliqi g‘avrovu (g‘ubor, chang) aflok (falaklar),

Yaratdi qatraedin gavhari pok.

Ushbu baytda Rasululloh (s.a.v) sof, beba ho gavharga qiyoslanmoqdalar. Bundan tashqari, oxiratga qadar u zoti sharif (s.a.v) kabi zot qayta tug‘ilmasligi uqtirilmoqda.

Samovat uyini tutdi muallaq,

Jahona hukmini ko‘rsatdi mutlaq.

Bu baytda esa, muallif Alloh osmonlar uyini havoda ustunsiz muallaq yaratganligi hamda olamlarga o‘zining mutlaq hukmini, hokimligini ko‘rsatishini ta’kidlamoqda. Bu holat Qur’oni karimning Rad surasi 2-oyatida shunday bayon etilgan: “Alloh siz ko‘rib turgan osmonlarni ustunsiz yaratgan”.

Alloma asarning “Iymonning bayoni” bobida Allohga iymon keltirish joizligini go‘zal satrlarda ifoda etadi:

Xudodin har na kelsa rost bilding,

Tiling birla yana iqror qilding.

Musulmonlig‘ yo‘lida buldir iymon,

Muni bilmas kishi tongla (qiyomatda) pushaymon.

Bu yerda muallif Kalimayi toyibani til bilan aytmoq va dil bilan tasdiqlamoq ahli sunna va jamoa e’tiqodi, moturidiya aqidasi bo‘yicha iymonning asosiy sharti ekanligini ta’kidlamoqda. Keyingi baytlarda muallif iymonning sobitligi borasidagi aqidani ilgari surmoqda:

Yaqin bilg‘ilki, iymon bo‘lmag‘ay kam,

Erur birdek, ziyoda bo‘lmag‘ay ham.

Bu so‘zdir ahli sunnatning tariqi,

Jadal etdi bu so‘zda har fariqi (firqa, to‘da).

Shuningdek, shoir asarida iymon va islom tushunchalarining bir ma’noni anglatishini bildirmoqda:

Erur bir ma’nida iymonu islom,

Buni bilsa kerak har xosu har om.

Keying bob iymonning ikkinchi sharti bo‘lgan “Farishtalarning bayoni” ga bag‘ishlanadi:

Maloikkim erurlar olami g‘ayb,

Hama Haq bandasidur beshaku rayb.

Alar forig‘ erur ichmak-emakdin,

Yomon qilmaq, qaboxat (yovuzlik) so‘z demakdin.

Niso ermas alarming vasfi, er ham

Bi lo shahvat yaratdi Shohi olam.

Navbatdag‘ imon bobidagi sharh “Ajalning bayonida” qismida quyidagicha keltirilgan:



Ajal albatta birdur, o'zga bo'lmas,
Ular har zi nafs, hargiz ul o'lmas.

Qayu qulga ajalning vaqtı yetsa,
Qutulmas har nechakim, hiyla etsa.

Keyin qolmas ajal, ey ibni Odam,
Yetushsa soati, yo ilgari ham.⁸

Qiyomatga iymon keltirmoq har bir musulmon iymon keltirishi kerak bo'lgan imon shartlaridan biridir. Bu borada "Qiyomat haqligi bayonida" bobida quyidagicha keltiriladi:

Qiyomat haq erur, ey Odamiyzod,
Xudo Qur'on ichida ko'p qildi yod.

Bo'lur qudrat bilan tufrog'imiz tan,
Kiar jon qaytadin beshubhavu zan.

Xudo hech yerda yo'jni ayladi bor,
Yaratsa qaytadin, ermas bu dushvor.

Darhaqiqat, qiyomat haq. Qur'oni Karimning bir necha o'rinalarida bu borada oyatlar keltirib o'tilgan. Jumladan, "Hoqqa" surasida quyidagicha keltirib o'tiladi: "O'sha kunda sizlar (hisobot uchun Allohga) ko'ndalang qilinursiz, sizlarning biror siringiz maxfiy qolmas".

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir mo'min va muslima imon shartlarini bilishi va unga amal qilishi lozim. Imon masalasi islomning eng asosiy shartidir. Shu bois, muallif bu kitobda iymon masalasini hamma uchun tushunarli, sodda va xalqchil tilda, she'riy usulda bayon qilgan.

So'fi Allohyorning "Sabot ul-ojiziyn" asarida komil inson tarbiyasi g'oyasi. "Sabot ul-ojizin" falsafiy-didaktik adabiyotning eng yaxshi namunalaridan biridir. Unda kamolotga erishishning o'ziga xos yo'llari bayon etilgan. Asarda kamolotga erishish uchun nafsni poklash, ta'madan qochish kerakligi ta'kidlanadi.⁹ Shuningdek, takabburlik, yolg'onchilik, mansabparastlik kabi illatlar qoralanadi.

Muallifning fikricha, komillikka erishishning asosiy sharti e'tiqod masalasidir. E'tiqodsiz, aniq maqsadsiz kishi behuda umr kechirgan bo'ladi. Umri zoye ketadi. Unga tog'ri yo'lni ko'rsatish zarur.¹⁰

Xo'sh, to'g'ri e'tiqod yo'li anglangach, endi nima qilish kerak? – Bu yo'l tariqat yo'lidir. Unda, bu yo'lni qanday topsa bo'ladi? – Piri komil, ya'ni, taqvodor—shariat qonunlarini

⁸ Хидоят ут-толибийн"—“Сабот ул-ожизийн шарҳи”/ Саййид Ҳабибуллоҳ ибн Саййид Яхёхон: шарҳлаб нашрга тайёрловчи: О. Алимов –Тошкент. Тошкент ислом университети. 2009. 5-б.

⁹ Равшан Мирзаев. Сўфи Оллоёрга замон боқажак. –Тошкент. Фан. 2007. 29-б.

¹⁰ "Саботул ожизин" шарҳи/ С. Алоҳёр: шарҳлаб нашрга тайёрловчилар.:М. Исмоиловб ва А. Акбаров. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. 146-б.



yaxshi biladigan va ularga amal qiladigan yo'lboshchi orqali. Ana shundagina kishi kamolotga erishishi, o'zining havoyi nafsidan ustun kelishi, o'tkinchi narsalardan uzoqlashishi mumkin. Buni muallif asarning "Tolib kerakkim, piri komil topib qo'l bersa" bobida quyidagicha tasvirlaydi:

"Kel ey tolib, bu dundin yuz o'gursang,
 Tariqi ka'bayi maqsuda yoursang.

Qadam qo'ysang agar bul vodiyg'a,
 Qo'lungi topshir avval hodiyg'a.

Ajab yo'ldir, aning poyoni yo'qdir,
 Xatarlik yarlarning soni yo'qtur.

Talab qilg'on o'sha rohi adamda (noma'lum, yo'qlik yo'li),
 Halokat chohidur har bir qadamda.

Ajab yo'ldir, tamom mehnatu ranj,
 Va lekin har qarishda bir nihon ganj.

...Qachon har pir bilur qutlug' yo'lingni,
 Topib er yaxshisin topshur qo'lingni.

O'shal piriki arning eri bo'lg'ay,
 Tariqat beshasi (changalzori)ning sheri bo'lg'ay.

Quyida ta'kidlanganidek, bu sir-u sinoatga to'la yo'ldir. Uning poyoni ko'rinxmaydi. Ya'ni, kishining ilm-ma'rifati ortgan sari bu yo'lining yanada cheksiz ekanligini anglayveradi. Unda xatarlar ham bisyor. Shuningdek, bu yo'l boshdan-oyoq mehnatu-mashaqqatlarga to'la, lekin har qarichida yashirin xazinalar bor. Bu yo'ldan o'tmaguncha, kishilar bu boyliklardan bebahra bo'ladilar. Zeroki, tariqat maqomi ham zavqlidir. Buni kishi pir ko'magida tushunib, dildan his qilmaguncha, boshqalar bayoni orqali mukammal anglay olmaydi.¹¹

Muallif kamolot yo'lida pirga qo'l berar ekan, dunyo hoyu-havaslaridan voz kechishi kerakligini "Tolib kerakkim o'zini mosivalloq qilmog'i" bobida quyidagicha ta'kidlab o'tadi:

Kel ey ko'ngil, jahon savdosidin kech,
 Qadam g'am kishvarina(mamlakat) urmag'il hech.

Jasad qolmasdin ilgari nafasdin,
 Havo ko'p qilmag'il, kechgil havasdin.
 Dari (eshik) tavba ochiqda ista maqsud,
 Ish o'tkan so'ng pushaymondin nechuk sud.

¹¹ "Саботул ожизин" шархи/ С. Алоҳёр: шархлаб нашрга тайёрловчилар:М. Исмоиловб ва А. Акбаров. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. 147-б.



Egil tezroq xudoning toqatig ‘a,
Keyin qo‘yma bu damni soatig‘a.

Mabodo tavba qilmasdan burunrog‘,
Ajal kelsa ketarsan tavbasiz dog‘.

O‘lumni doimo yoningda bilgil,
Ani ilgin giribon (yoqa)ingda bilgil.
O ‘limning soqisin peshonada bil,
Labingni doimo paymona(idish, qadah)da bil.

Ajal tortib turibdur yoy bila o‘q,
Yoshinur yer, qochar darmonimiz yo‘q.

Ko‘torubdur qilich bizga solurga,
Kishi bilmas qo‘yarmu dam olurga.

So‘fi Allohyor, har bir mo‘min va muslima o‘zaro mehribon bo‘lmog‘i, bir-birining haqqiga rioya etmoqligi kerakligini “Ikki mo‘min bir-birig‘a xayr qilmoq bayonida” bobida quyidagicha ta’riflaydi:

Kel ey mo‘min, hamisha xush inon bo‘l.
Musulmon bo‘lsa har kim mehribon bo‘l.

Ochilg‘aysan ani ko‘rganda guldek,
Tavoze’ ayla xizmatkor quldek.

Tut ul do‘sungni sut ustida qaymoq,
Aziz joningcha ko‘rg‘il, balki behroq.¹²

Alloma inson kamolotga erishuvida shukronalik kerakligi va uning yuksak ahamiyatini “Xudoni ne’matlarig‘a fikr aylamoq bayonida” bobida quyidagi go‘zal baytlar orqali ta’riflaydi:

Kel, ey ozoda, voqif bo‘l ko‘ngilg‘a,
Ko‘ngil yo‘lboshchidur qurbatli yo‘lg‘a.

Ko‘gil har gal salohiyatda bo‘lsa,
Topar banda qayu niyatda bo‘lsa.

So‘fiy Olloyor inson fe‘lidagi salbiy jihatlarni qanchalik iztirob bilan tasvirlasa, ijobjiy tomonlarni shunchalik zavq-shavq bilan kuylaydi. Odamlarni ochiqko‘ngillikka, shirinso‘zlikka, rahmdillikka, mehr-oqibatga, saxovatga da‘vat etadi:

Ochuq qo‘llik, kushoda yuzli bo‘lg‘il,

¹² Ҳидоят ут-толибийн”—“Сабот ул-ожизийн шархи”/ Сайид Ҳабибуллоҳ ибн Сайид Яхён: шархлаб нашрга тайёрловчи: О. Алимов –Тошкент. Тошкент ислом университети. 2009. 6-б.



Muruvvatlik, muloyim so‘zli bo‘lg‘il.

Muloyim til bilan beharbu bezarb
Birovni keltirurlar sharqdan g‘arb.

Suchuq tildir ajib ganji muazzam,
Ato qilgon hech bo‘lmaq‘ay kam...

Alloma kishi kamolotga erishuvida hayotning tub mohiyatini anglashi, umrni behuda narsalar bilan o‘tzib yubormasligi kerakligini “Umrning foniyligi bayonida” bobida keltirib o‘tadi:

Kel ey mo‘min, yaqin biling ketarni,
Hisobi umr besomon o‘tarni.

O‘tar dunyo uchun bo‘lma giriftor,
O‘lumsa yig‘mag‘il monandi kaftor (itsimon yirtqich hayvon).

Agar dunyoga hirsing bo‘lsa, fajsan (pastkash),
Najosatni yig‘arga kalhamajsan (go ‘ngqo‘ng‘iz).¹³

...Kishining e’tiqodi bo‘lsa solim,
Demas, go‘ru kafanlikdir bu molim.

Ne g‘am, iymoni qulning o‘lganida,
Tanida bo‘lmasa uch gaz tanida (bo‘z ma’nosida).

Salomat o‘lsa iymoni bilan kas,
Agar oriy ko‘mulsa, ori bo‘lmas.¹⁴

So‘fi Olloyor inson tarbiyasida, uning kamolotida ahdiga sodiq, va’dasiga vafodor bo‘lishi kerakligini takidlاب, shunday deydi:

Xilof etgan zabunlardan zabundir,
Bu dunyo-yu u dunyosi nagundir.

Xilof etsang agar ayg‘on so‘zingdin,
Ko‘tar erkaklik otini o‘zingdin.

Chiqormag‘il og‘izdin, qilmas ishni,
Qilurman, dema qo‘ldan kelmas ishni.

Kerak erman deganning va’dasi tuz,

¹³ Хидоят ут-толибийн”—“Сабот ул-ожизийн шархи”/ Сайид Ҳабибуллоҳ ибн Сайид Яхёон. –Тошкент. Тошкент ислом университети. 2009. 11-б.

¹⁴ “Саботул ожизин” шархи/ С. Алоҳёр: шархлаб нашрга тайёрловчилар: М. Исломиловб ва А. Акбаров. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. 147-б.



Agar tuz bo'lmasa, oldin ko'ngul uz.¹⁵

Alloma kishilarni bilim egallash, kasb-hunar o'rganishga da'vat etar ekan, xalol, peshana teri bilan rizq topishga, hayotda pok yashashga undaydi, ta'magirlikdan qochishga, sabr-qanoatli bo'lishga chorlaydi:

Xudoyim har na bersa qil qanoat,
Yurakni qilma minnatdin jarohat.

Bu mehnat birla topsang parcha non,
Kishining minnatidan o'lur oson.

Ta'ma noniga lab ochguncha o'l och,
Ta'ma bo'yи ko'rinnmay bo'ydin qoch.

Asarda har bir inson boshqalarga ularning mansabi, davlati, nasabi kabilardan kelib chiqib emas, balki ularning taqvosi, ilmi, axloqi nuqtai nazaridan munosabatda bo'lishi kerakligi kitobning "Mo'min hech mo'minni haqir ko'rmasa" bobida go'zal badiiy bo'yoqlarda tasvirlangan:

Kel ey nozir (nazar soluvchi), musulmon bo'lsa har yor,
Nazar qilma haqorat birla zinhor.

Faqirni bilma kam dunyo eliding,
Hadisi keldi Payg'ambar tilidin.

Dedi: "Al-faqr faxriy", ya'ni ul shoh,
Nechuk ortiq ko'rarsan hashamatu joh?!

Amaldur yaxshi qullarning kamoli,
Vara'dur hashamatu johu jaloli.

Emas dunyosi bo'lg'on birla mahbub,
Hisobi oxirat kam bo'lg'oni xo'b.¹⁶

Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, ushbu tezisda So'fi Allohyor qalamiga oid "Sabot ul-ojizin" asaridagi te'ran ma'no-mazmunga alohida to'xtalib o'tildi. Asardagi she'rlarning ba'zilaridan na'munalar keltirilib, sharhlandi. Bundan tashqari, undagi ma'nolari tushunilishi qiyin bo'lgan so'zlardan keyin alohida qavs ochilib, unga hozirgi tilimiz nuqtai nazaridan mos bo'lgan lug'atlar yozilib, ularga birma-bir izoh berildi. Asarda inson kamoloti masalasiga alohida urg'u berildi. Unga ko'ra, odamizod dunyoga kelibdiki, hayotdan ko'zlagan o'z maqsad va muddaolari bo'ladi. Ana shu yo'lda kishi butun diqqat-e'tiborini komillikka erishishga yo'naltirishi kerak. Ana shundagina inson hayotning asl mohiyatini, borliqning yaratilish sababini anglaydi.

¹⁵ Ҳамиджон Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. –Тошкент:” Шарқ”, 2004. 186-б.

¹⁶ “Саботул ожизин” шархи/ С. Алоҳёр: шархлаб нашрга тайёровчилар:М. Исмоиловб ва А. Акбаров. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. 334-б.



FOYDALANILGAN MANBA VA ADABIYOTLAR RO'YXATI:

O'zbek tilidagi manbaalar:

1. М. М. Хайруллайев. "Маънавият юлдузлари". –Тошкент, А. Қодирий, 1999. Б--395.
2. У. Увватов. Ўзбекистон—буюк алломалар юрти. –Тошкент, "Маънавият", 2010. Б--396.
- 3."Саботул ожизин" шарҳи/ С. Алоҳёр: шархлаб нашрга тайёрловчилар.:М. Исмоиловб ва А. Акбаров. – Самарқанд: Имом Бухорий халқаро маркази нашриёти. Б-527.
4. "Хидоят ут-толибийн"—“Сабот ул-ожизийн шарҳи”/ Саййид Ҳабибуллоҳ ибн Саййид Яхёхон. –Тошкент. Тошкент ислом университети. 2009. Б--292.
5. F. Hasanov. Ma'naviyat yulduzlar. -Toshkent, O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2011. В-365.
6. Ҳамидjon Ҳомидий. Тасаввуф алломалари. –Тошкент:" Шарқ", 2004. Б-206.
7. Равшан Мирзаев. Сўфи Оллоёрга замон боқажак. –Тошкент. Фан. 2007. Б--54.

Internet saytlari:

1. [Lex.uz](#).
2. [www.wikipediya.uz](#)
3. [iiau.library.uz](#)
4. [Shosh.uz](#)
5. [VKBooks](#)